



Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatining qamrovi va javobgarlik xususiyati.

Xamidova Mehribonu Ismatillo qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Prokurorlik faoliyati" yo'nalishi 2-bosqich magistri.

xamidovamehribonu84@gmail.com

Annotasiya

Oilaviy zo'ravonlik, odatda, oiladagi zo'ravonlik deb ataladi, bu ko'p qirrali muammo bo'lib, individual, munosabatlar, ijtimoiy va madaniy omillarning murakkab o'zaro ta'siridan kelib chiqadi. Bugungi kunda butun dunyoda oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solish va ularni himoya qilish eng muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi, chunki oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanib uni har tomonlama himoya qilish, bola huquqlarini ta'minlash muhim hisoblanadi. Shu sababli ham oilaga qarshi jinoyatlarni tartibga solishda va oila a'zolarini huquqlarini himoya qilishda oila jinoyat qonunchiligi bilan himoyalaniishi muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar

Oilaviy maishiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, oilaga qarshi jinoyatlar, ruhiy tazyiq, maishiy zo'ravonlik.

Abstract

Domestic violence, commonly referred to as domestic violence, is a multifaceted problem that arises from the complex interaction of individual, relational, social and cultural factors. Today, the regulation and protection of family legal relations is one of the most important and priority tasks in the world, since the family is the main unit of society and its comprehensive protection and ensuring the rights of the child are important. Therefore, it is important to protect the family by criminal law in regulating crimes against the family and protecting the rights of family members.

Keywords

Domestic violence, domestic violence, psychological violence, economic violence, physical violence, crimes against the family, psychological pressure, domestic violence.

Kirish: Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, shuning uchun oilaga qarshi jinoyatlar jamiyat barqarorligiga tahdid soladi. Voyaga yetmaganlar va mehnatga layoqatsiz shaxslar himoyasiz bo'lib qoladi, ularning huquqlari buzilishi esa kelajak avlodni xavf ostiga qo'yadi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligining asosiy sababi jamiyat va davlatning kelajak avlodi aynan shu yerda tarbiya va ilm olishi bilan



baholanadi.

Muhokama va natijalar: Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik deganda oila a‘zosining boshqa bir oila a‘zosiga nisbatan uning huquqlarini, erkinliklarini yoki qonuniy manfaatlarini buzadigan jismoniy(sog‘lig‘i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qiladigan g‘ayriqonuniy harakatlar) va ruxiy (sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni shaxsiy, mulkiy huquqlarini amalga oshirishni cheklash, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash, mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, mulkiga shikast yetkazish, nobud qilish, hayoti yoxud sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish) va albatta iqtisodiy (mulk, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishini cheklashga olib keladigan, mol mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazishg qaratilgan harakat yoki harakatsizlik) xatti-harakatni sodir etilishi tushunilishi lozim. Bu qisimning eng so‘ngi turi bo‘yicha qo‘rqitishga ta‘rif beradigan bo‘lsak, qarama-qarshi tomonga qarshi qilingan yoki amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan har qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tahdidlar, zo‘rluk ishlatish yoxud zo‘rluk ishlatish bilan tahdid qilish tushunilishi kerak¹.

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik 3 xil ko‘rinishda namayon bo‘lmoqda²:

1. Jismoniy zo‘ravonlik;
2. Psixologik zo‘ravonlik;
3. Iqtisodiy zo‘ravonlik.

Jismoniy zo‘ravonlik: Bu turdagi jinoyatlar, oiladagi a‘zolarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Masalan, turmush o‘rtog‘iga yoki bolalarga nisbatan jismoniy tajovuz. Bu holat bo‘yicha Jinoyat kodeksining 126¹-moddasida oilaviy(maishiy) zo‘ravonlik deb atalgan alohida modda bilan tartibga solinadi. Oilaviy (maishiy) jismoniy zo‘ravonlik deb kundalik birgalikdagi hayot (turmush)da oilaning bir yoki bir guruh a‘zolari tomonidan boshqa bir a‘zosining sog‘lig‘i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qiladigan g‘ayriqonuniy harakatlar tushunilishi lozim³. Bu holat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi bo‘yicha bu modda subyekti sifatida er-xotin, sobiq er-xotin, bir ro‘zg‘or asosida bir tom ostida er-xotinlik munosabatida yashayotgan shaxslar hamda umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxslar tushuniladi.

¹ M. Rustambaev O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish, 2024. 76 b.

² https://lex.uz/jinoyat_kodeksi/-111453

³ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustambaev. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish, 2024.17 b.



Psixologik zo‘ravonlik: Oiladagi a‘zolari ruhiyatiga zarar yetkazish, ularni haqoratlash, tahdid qilish va kamsitish kabi harakatlar psixologik zo‘ravonlik sifatida tasniflanadi.

Oilaviy (maishiy) ruhiy zo‘ravonlik deb, doimiy birgalikdagi hayot yoki turmushda oilaning bir yoki bir guruh a‘zolari tomonidan boshqa bir a‘zosining sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni shaxsiy, mulkiy huquqlarini amalga oshirishni cheklash, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash, mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, mulkiga shikast yetkazish, nobud qilish, hayoti yoxud sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish tushunilishi lozim⁴.

Xalqaro tadqiqotlar milliy, jamoa va individual darajada oiladagi zo‘ravonlik uchun xavf omillarini aniqladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining BMT Bosh Assambleyasining 61-sessiyasidagi ma‘ruzasi oiladagi zo‘ravonlik uchun xavf omillarining eng keng qamrovli tahlilini taqdim etadi. Bu omillar “shaxs, oila, jamoa, jamiyat va davlat darajasida” taqdim etiladi. Ular bitta modelga birlashtirilgan va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) individual darajada: yoshlar; bolalik davrida oilada jinsiy zo‘ravonlik tarixi; turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi oilaviy zo‘ravonlikni kuzatish; spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni tez-tez ishlatish; past ta‘lim va iqtisodiy ahvol; Cheklangan va taqiqlangan jamoalarga a‘zolik⁵.

Imiy hamjamiyatda oiladagi zo‘ravonlikning mavjudligi ba‘zi tortishuvlarga sabab bo‘ladi. Albatta, bu shaxsga nisbatan bevosita jismoniy va ruhiy zo‘ravonlik bo‘lmaganda, masalan, oilaning sud qarorida nazarda tutilgan aliment to‘lash majburiyatini bajarmaganligi natijasida oilaviy munosabatlarga zarar etkazish bilan bog‘liq degan fikr mavjud. Natijada, voyaga etmagan yoki nogiron ota-onalar qonuniy imtiyozlar olishda cheklangan.⁶

O‘zbekistonda 2025-yilning birinchi yarmida 4952 kishi oiladagi zo‘ravonlikda ayblanib ma‘muriy javobgarlikka tortildi. Shuningdek, bu vaqt davomida 986 nafar shaxs shahvoniy shilqimlik qilishda, 99 nafar fuqaro esa shaxsning sha‘nini va qadr-qimmatini kamsituvchi ma‘lumotlarni oshkor qilishda ayblangan. O‘zbekistonda 2025-yilning birinchi yarmida 5 mingdan ortiq shaxs oiladagi zo‘ravonlikda ayblanib, javobgarlikka tortilgan. Bu haqda Oliy sud matbuot kotibi Aziz Abidov xabar

⁴ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustambaev. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish, 2024.17 b.

⁵ .Karimova N. M. (2020). Oilaviy muammolar va psixologik profilaktika. “O‘zbekiston psixologiya jurnali”, 5(2), 45-52.

⁶ World Health Organization. (2017). “Violence Against Women Prevalence Estimates, 2010.” WHO.



berishicha: Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59–2-moddasi (Oiladagi (maishiy) zo'ravonlik) bilan 4952 kishi sudlandi, ularning 3200 nafariga jarima jazosi, 1752 nafariga esa ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilgan. Jinoyat kodeksining 126–1-moddasi (Oiladagi (maishiy) zo'ravonlik) bilan 231 nafar shaxs sudlanib, ularning 65 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 166 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlandi.

Eslatib o'tamiz, 2023-yil 11-aprelda "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun prezident tomonidan imzolangan edi. Unga muvofiq Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 41–1-modda (Shahvoniy shilqimlik qilish), 59–2-modda (Oiladagi (maishiy) zo'ravonlik) va Jinoyat kodeksi 126–1-modda (Oiladagi (maishiy) zo'ravonlik), 141–3-modda (Shaxsning sha'nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilish) bilan to'ldirilgandi⁷.

Xulosa: Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida ham xorijiy davlatlarda ham bu norma tegishli qonunlari bilan o'z aksini topgan va albatta bu jinoyat uchun aniq asoslarda javobgarlik belgilangan hisoblanadi. "maishiy zo'ravonlik —o'z-o'ziga aloqador bo'lmagan har qanday qasddan jismoniy yoki og'zaki harakat yoki harakatsizlik. —bir oila a'zosi tomonidan boshqa oila a'zolariga, shu jumladan bolalarga nisbatan sodir etilgan jismoniy, jinsiy, ruhiy, ma'naviy yoki iqtisodiy ta'sir, moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazish shaklida boshqalarni himoya qilish". Ma'naviy zo'ravonlik oila a'zolaridan birining intilishlarini taqiqlash, cheklash, masxara qilish va jazolash, madaniy, etnik, til yoki diniy qadriyatlarga kirishni taqiqlash, cheklash, masxara qilish va jazolash orqali ma'naviy ziyon yetkazishda namayon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1- O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi;
- 2- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustambaev. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish, 2024.
- 3- Karimova N. M. (2020). Oilaviy muammolar va psixologik profilaktika. "O'zbekiston psixologiya jurnali", 5(2), 45-52.
- 4- World Health Organization. (2017). "Violence Against Women Prevalence Estimates, 2010." WHO.

⁷ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/05/violence/>



- 5- Heise, L. (1998). "Violence Against Women: An Enduring Problem." "Journal of Interpersonal Violence", 13(1), 8-15.
- 6- Panjizoda H. Z.. "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha xalqaro huquqiy tajriba" Философия и право, vol. 28 , no. 2, 2024, pp. 204-207.